

91. 2 soniga ko'paytirish

Yondosh mavzu:
bolalar huquqlari.


Ko'p sonli qo'shish,
sonli nur.



1. Yo'lakda bolalar huquqlari haqidagi plakat osig'liq turibdi. Unda bolalarga tegishli nechta huquq ko'rsatilgan? Buni turli usullar bilan hisoblang.

himoya huquqi	ism olish huquqi	ta'lim olish huquqi	oilaga ega bo'lish huquqi	sog'lig'ini muhofaza qilish huquqi	yashash huquqi	dam olish huquqi	ko'mak olish huquqi
---------------	------------------	---------------------	---------------------------	------------------------------------	----------------	------------------	---------------------

2. Sonli nur yordamida ko'paytmani toping.



2 ga ko'paytirish jadvali

a	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
a · 2	2	4	6	8	10	12	14	16	18	20

3. Taqqoslang.

$$5 \cdot 2 \square 2 \cdot 9$$

$$2 \cdot 8 \square 2 \cdot 4$$

$$7 \cdot 2 \square 6 \cdot 2$$



4. Bo'sh katakchalarni to'ldiring.

$$2 \cdot \square = 8$$

$$\square \cdot 2 = 20$$

$$\square \cdot 2 = 14$$

$$2 \cdot \square = 6$$

$$2 \cdot \square = 10$$

$$\square \cdot 2 = 12$$



5. Har yili mактабда о'quvchilar uchun tibbiy ko'rik o'tkaziladi. Birinchi kun vrach 49 o'g'il bolani va 64 nafar qiz bolani, ikkinchi kun 52 nafar o'g'il bolani va 60 nafar qiz bolani ko'rikdan o'tkazdi. Qaysi kuni ko'proq bola ko'rikdan o'tkazilgan? Shu ikki kunda jami necha nafar bola ko'rikdan o'tgan?



6. Tenglamalarni yeching.

$$x - 12 = 2 \cdot 9$$

$$63 - z = 2 \cdot 7$$

$$y + (2 \cdot 4) = 52$$

$$(2 \cdot 8) + t = 91$$



7. Blits. Ifodalar tuzing va ularning qiymatini hisoblang.

a) Bolalar huquqlari haqidagi plakat kengligi

2 m va balandligi 1 m bo'lgan to'g'ri to'rtburchak shakliga ega. Bu plakatning yuzi nimaga teng?

b) Raqs to'qaragida bolalar juft-juft bo'lib saflanishdi. Agar 8 ta juftlik hosil bo'lgan bo'lsa, necha nafar bola to'garakka qathashadi?



8. Hisoblang.

$$(632 - 486) + (935 - (726 - 145))$$



9. Taqqoslang.

$$2 \cdot 7 \square 4 \cdot 2$$

$$2 \cdot 3 \square 2 \cdot 10$$

$$1 \cdot 2 \square 5 \cdot 2$$



10. Qutida 67 ta oltin, undan 95 ta ko'p kumush medal bor. Bayramda dastlab 45 ta medal, keyin esa yana 38 ta medal topshirildi. Qutida nechta medal qoldi?



11. Tenglamalarni yeching.

$$n + (2 \cdot 6) = 121$$

$$98 - m = 2 \cdot 8$$

$$t - 2 \cdot 5 = 98$$